



**BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2023- YIL
YANVAR-APREL**



2023- yilning yanvar-aprel oyida, Buxoro viloyatida jami **1 717,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **102,8 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor




2023- yil 1- may holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1 431

Bino va inshootlar
qurish

427

Fuqarolik obyektlarini
qurish

708

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 88,1 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 55,8 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 81,8 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,6 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 127,8 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 27,6 foiz ulushni va 85,3 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.05.2022- y.	01.05.2023- y.	
Buxoro viloyati	2 913	2 566	88,1
Buxoro shahri	940	800	85,1
Kogon shahri	126	105	83,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	78	80	102,6
Buxoro	231	186	80,5
Vobkent	123	118	95,9
G'ijduvon	201	147	73,1
Kogon	142	132	93,0
Qorako'l	105	109	103,8
Qorovulbozor	55	55	100,0
Peshko'	176	160	90,9
Romitan	255	241	94,5
Jondor	242	214	88,4
Shofirkon	239	219	91,6



2023- yil 1- may holatiga ko'ra Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Buxoro sh. (31,2)



Romitan t. (9,4)



Shofirkon t. (8,5)



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. soʻm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	2 397,6	434,7	1 447,3	515,6
Buxoro sh.	578,5	102,5	357,5	118,5
Kogon sh.	101,2	55,4	31,1	14,7
tumanlar:				
Olot	160,0	46,7	83,1	30,2
Buxoro	181,3	3,5	129,5	48,3
Vobkent	76,0	-	49,5	26,5
Gʻijduvon	178,9	-	125,1	53,8
Kogon	184,7	39,1	109,6	36
Qorakoʻl	123,6	1,4	96,4	25,8
Qorovulbozor	101,5	80,9	16,4	4,2
Peshkoʻ	158,9	-	115,7	43,2
Romitan	228,9	91,0	84,4	53,5
Jondor	163,2	-	132	31,2
Shofirkon	160,9	14,2	117	29,7





2023- yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 434,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi koʻrsatkich darajasidan 0,7 % punktga kamayib, 18,1 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 79,7 % i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 78,5%), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 54,8% i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 54,9 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 60,4% i to'g'ri kelib, 2022- yilning ko'rsatkichiga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil etgan holda 1 447,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



60,4

2023-yil
yanvar-aprel


60,3

2022- yil
yanvar-aprel



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Jondor tumanida (132,0 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 80,9 %), Qorako'l tumanida (96,4 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 78,0 %) va Peshko' tumanida (115,7 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 72,8 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **21,5 %** ni tashkil etdi yoki **515,6 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **102,8 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **149,0 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 248,6 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,4 %** va **94,6 %** ni tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-aprel



2023- yil
yanvar-aprel



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-aprel oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **55,3 %** i yoki **1 326,0** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

20,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **270,9** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **20,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **591,1** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **44,6 %** ni tashkil etdi.

44,6 %

35,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **464,0** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **35,0 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Buxoro viloyati	2 397,6	102,8	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	578,5	111,6	24,1
Kogon sh.	101,2	72,8	4,2
<i>tuman:</i>			
Olot	160,0	101,9	6,7
Buxoro	181,3	105,3	7,6
Vobkent	76,0	106,3	3,2
G'ijduvon	178,9	105,0	7,5
Kogon	184,7	103,4	7,7
Qorako'l	123,6	106,2	5,2
Qorovulbozor	101,5	75,4	4,2
Peshko'	158,9	103,0	6,6
Romitan	228,9	104,5	9,5
Jondor	163,2	108,1	6,8
Shofirkon	160,9	107,8	6,7



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da

2022- yil
yanvar-aprel

12,2

8,2

56,1

59,1

31,7

32,7

2023- yil
yanvar-aprel



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxonalar
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 8,2 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,1 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga ko'payib, 59,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko'payib, 32,7 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 37,4 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 11,1 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 62,6 % (11,1 % punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

2022- yil
yanvar-aprel



2023- yil
yanvar-aprel

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi va 37,1 % ni tashkil etdi. Qolgan 62,9 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,0 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	2 397,6	1 575,1	477,6	344,9
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	578,5	345,0	171,8	61,7
Kogon sh.	101,2	51,7	32,9	16,6
<i>tuman:</i>				
Olot	160,0	84,8	17,4	57,8
Buxoro	181,3	135,5	26,6	19,2
Vobkent	76,0	59,8	10,7	5,5
G'ijduvon	178,9	135,0	25,6	18,3
Kogon	184,7	109,2	56,0	19,5
Qorako'l	123,6	89,7	21,8	12,1
Qorovulbozor	101,5	26,0	6,3	69,2
Peshko'	158,9	118,2	23,6	17,1
Romitan	228,9	196,5	22,1	10,3
Jondor	163,2	117,1	27,2	18,9
Shofirkon	160,9	106,6	35,6	18,7



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	1 191,0	101,1
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	1 996,3	109,5
Kogon sh.	1 586,5	71,2
<i>tuman:</i>		
Olot	1 553,7	100,4
Buxoro	1 034,4	103,7
Vobkent	520,0	104,7
G'ijduvon	563,2	103,3
Kogon	2 230,6	101,5
Qorako'l	727,4	104,7
Qorovulbozor	5 179,0	73,5
Peshko'	1 231,0	101,2
Romitan	1 533,9	102,7
Jondor	894,4	106,4
Shofirkon	872,2	106,3



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel uchun



Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 5 179,0 ming so'm (yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 73,5 %), undan keyin mos ravishda Kogon tumani – 2 230,6 ming so'm (yoki 101,5 %), Buxoro shahri – 1 996,3 ming so'm (yoki 109,5 %), Kogon shahri – 1 586,5 ming so'm (yoki 71,2 %) va Olot tumani – 1 553,7 ming so'm (yoki 100,4 %) egalladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (65) 223-81-99